

TARJIMA VA UNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

O'ktamova Ruxshona

O'ZDJTU Tarjimonlik fakultetining

1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: roman-german tillari

tarjimashunosligi kafedrası

dotsenti **Dadamirzayeva M.V.**

valiyevna73@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimaning kelib chiqishi va uning insonlar hayotida tutgan o'rni tasvirlanadi.

Kalit so'zlar: tarjima, badiiy tarjima, tarima nazariyasi va amaliyoti, tarjimon.

Аннотация: В этой статье представлена информация о зарождении перевода и его роли в жизни человека.

Ключевые слова: перевод, литературный перевод, теория и практика перевода, переводчик.

Abstract: This article provides information about the origins of translations and its role in human life.

Keywords: translation, literary translation, theory and practice of translation, translator.

Ma'lumki bugungi kunda dunyo miqyosida ilmiy, ijtimoiy va siyosiy hukmronlik o'rnatilgan. Buning zaminida tarjimaning o'rni eng muhim omil hisoblanadi. "Muayyan tilda og'zaki yoki yozma tarzda bayon etilgan biror-bir fikr, matnlarni bir tildan boshqa tilga o'girish jarayoni tarjima deyiladi"¹.

Tarjima – millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Hozirgi vaqtda tarjimaning insonlar hayotida tutgan o'rni suv va havoning inson hayotidagi o'rni kabi. Biz yashayotgan davrda tarjimasiz millatlararo do'stona munosabatlarni, xilma-xil bo'lgan xalqlarning bir-biri bilan aloqasini, taraqqiyotini va rivojlanishini tasavvur qila olmaymiz. Bundan tashqari tarjima sababli biz boshqa xalqlarning madaniyatini, ma'naviyatini va o'ziga xosligini anglab yetamiz. Mashhur tarjimon, olim Sanjar Siddiq aytganlaridek: "Tarjima – asarning boshqa tildagi to'liq nusxasidir"². Tarjima adabiyoti milliy adabiyot xazinasidan o'z o'rnini topib, yildan-yilga boyib borayotganini ko'rib, olimning yuqoridagi so'zlari o'z tasdig'ini topgan deya olamiz. Tarjima va tarjimashunoslik fan sohasi sifatida shakllandi va XX asrda juda shiddat bilan ravnaq topdi. Hozirga kelib, dunyoda tarjima nazariyasining, lingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika bilan chambarchas bog'langan yo'nalishlari rivojlanmoqda. Universitetlarda, ilmiy markazlarda qiziqarli tadqiqotlar olib borilmoqda. Albatta, tarjima buyuk badiiy ijod turi hisoblanadi. Tarjima bizdan yuksak ilm, izlanishlar va shu kabi bir qator mas'uliyatli ishlarni talab qiladi.

¹ E.Ochilov.Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. "O'qituvchi".1978

² G'.Sulamov.Tarjima nazariyasiga kirish.Toshkent: "O'qituvchi".1978

Tarjimaning badiiy tarjima, ilmiy-texnikaviy tarjima, yuridik tarjima va boshqa turlari mavjud.

Badiiy tarjima bilan shug'ullanishni istagan inson nafaqat o'z tilining adabiyotini, madaniyatini balki boshqa xalqlarning madaniyatini ham o'rganmog'i zarur. Badiiy tarjima juda katta tajriba talab qiluvchi tarjima turi. Misol tariqasida ma'lum bir asarni muallifidan ko'ra ko'proq izlanish va ijodkorlik hissi talab qilinadi deb ayta olamiz. Chunki asar muallifi badiiy asarni erkin Qalam tebratib yozadi, tarjimon esa uni yaratilgan badiyatini saqlagan holda boshqa tilga o'girmog'i darkor. Ya'ni biz asl asarni o'qiganimizda qanday his-tuyg'ular bizni qamrab olgan bo'lsa, tarjima qilingandan so'ng ham xuddi shu hissiyotlarni seza olishimiz kerak. Badiiy tarjimada eng muhim omillardan yana biri bu – estetik yondashuv, san'atkorlik hisoblanadi. Aytmoqchimanki, tarjimon tarjima qilayotgan asarni muallif darajasida puxta bilishi, muallif kabi mehr-muhabbat ila ishiga yondashmog'i zarur. Zero uning asari ham kitobxonning yuragigacha yetib borsin.

Hozirgi davrda har bir taraqqiy etgan davlat vakillari dunyodagi minglab xalqlar tilidan o'z ona tiliga ilm-fan, madaniyat, ma'rifat va shu kabi o'nlab sohalarga oid materiallarni tarjima qiladi. Bugun biz tarjimaning kundan-kunga rivojlanib, tarjimaga bo'lgan talab tobora kuchayib bormoqda deb ayta olamiz. Bunga sabab albatta xalqaro hamkorliklar, do'stona munosabatlar, dunyoviy qiziqishlardir.

Tarjima tushunchasi dastlab Qadimgi Rimda paydo bo'lgan bo'lib, Aristotel Sitseron va Goratsiyalar tarjimashunoslik sohasini eng birinchi namoyondalari hisoblanadi. Keyinchalik Italiya, Fransiya, Angliya, Germaniya, Rossiya kabi ko'plab mamlakatlarda tarjimashunoslik singari nazariy tushunchalar paydo bo'ldi. Dastavval tarjimonlar Misr, Messopamiyada bo'lgan degan qarashlar mavjud, ammo ular haqida, ularning tarjima asarlari haqida hech qanday ma'lumotlar topilmagan.

Tarjimonlar haqida so'z borar ekan, albatta Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Oripov, Mirtemir, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' mutaffakkirlarning ilm-fan rivojida o'zlarining buyuk hissalarini qo'shganiligini tasqiqlash maqsadida, ularning nafaqat durdona erishgan ekanligi ko'z oldimizda gavdalanadi. Ular ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimachiligida katta yutuqlarga erishganlar. Shu jumladan kelib chiqqan holda buyuk mutaffakkir olim, shoir va yozuvchi, tarjimon kabi kasblar egasi bo'lgan G'afur G'ulomni tarjima asarlari haqida gapiradigan bo'lsak, u asosan Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, Nozim Hikmat, Nizomiy kabi olimlarning asarlarning o'z ona tiliga mohirona tarjima qilgan. G'afur G'ulomning dunyoqarashi va badiiy didining shakllanishida Vladimir Mayakoiskiy asarlari katta ta'sir ko'rsatganligi haqida o'z maqolalarining birida shunday yozadi: "Men rus mumtoz ijodkorlarini bilaman va ularni sevaman va ularning ko'plab asarlarini ona tilimga tarjima qildim. Lekin men uchun vazn, lug'at timsol sherning ohang tuzilishi sohalarida eng serqirra va cheksiz imkoniyatlarni ochgan Mayakovskiyning shogirdiman deyishni istayman"³. Maskovskiy satirasidagi darg'azab tanqidiy kinoya, lirikasidagi bag'oyat ulkan tuyg'u kuchidan tashqari men o'zimda... uning usullarining dovyurak notiqlik kuchini

³G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. Toshkent. Fan. 1982

metaforalar jasorati, mubolag'alar ifodaliyligini oshiruvchi she'r qurilishidan ham o'zbek she'r tuzumida foydalanishimizga to'g'ri keldi". Bu jummalarni o'qir ekanmiz, yuragimizda tarjimaga, baddiyatga bo'lgan qiziqishlarimiz tobora ortib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima insonlar hayotida katta ahamiyat kasb etadi va bizning jamiyatimiz uchun mohir tarjimonlar kerak. Biz boshqa mamlakatlar bilan hamnafas bo'lishimiz uchun tajribali tarjimonlarning o'rni muhim ro'l o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.Ochilov. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. "O'qituvchi". 1978
2. G'.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish.Toshkent. "O'qituvchi". 1978
3. X.Ibragimov, A.Mamadaliev, U.Mansurov va boshqalar. Fransuzcha – o'zbekcha lug'at, Toshkent, 2008
4. E.Vohidov. She'rda tarjima va ijodiy ifoda masalalari. Toshkent. 1980